



KARIES KOVAKLARINI CHARXLASH BOSQICHLARI VA USLUBLARI.

Alfraganus Universiteti Tibbiyot fakulteti

Stomatologiya yo'nalishi 1-kurs talabasi

Salohiddinova E'zoza

Annotatsiya: Ushbu maqolada karies kasalligini davolash jarayonida kovakalarni charxlash bosqichlari, ularning ahamiyati va zamonaviy usublari yoritilgan. Karies kovagini tayyorlash-tish to'qimalarida zararlangan qismlarni olib tashlash, plombaga qulay va mustahkam joy yaratish jarayonidir.

Kalit so'zlar: charxlash, kovak, karies, emal, nekroektomiya, fiksatsiya, retsediv karies, fissure va sharsimon borlar,

Charxlash (lot. *preparare*-tayyorlash)-bu tish qattiq to'qimalariga jarrohlik muolajasini qilish. Charxlashdan maqsad: emal va dentindagi patologik o'zgargan to'qimani kesib olib tashlash; plomba ashyosini qo'yish uchun sharoit yaratib, tishni funksiyasi va anatomic shaklini tiklash. Charxlash usulini bajarishda bir necha qator qoidalar mavjud: charxlash maydoni yaxshi yoritilgan bo'lishi lozim; tishdagi karies nuqsoniga eng qulay yo'l izlash zarur; ishlatilayotgan borlar toza va o'tkir bo'lishi kerak; borlar hajmi charxlanayotgan kovak hajmidan bir oz kichikroq bo'lishi lozim; charxlashda borning aylanish tezligi baland bo'lishi kerak. Tishning patologik o'zgargan to'qimalarni charxlashda shifokor dastak ushlagan qo'lini ishonchli fiksatsiya qilishi kerak; dastaklarni to'g'ri ushlash lozim; karies kovaklarini charxlash jarayonida dastak ushlagan qo'lni yumshoq to'qimalarni zararlamaslik maqsadida qo'shimcha fiksatsiya qilish kerak; karies kovakni



charxlashda tishning topografiyasi, ayniqsa tish bo'shlig'ini karies kovakka yaqinligi inobatga olinishi lozim.

BLEKning "Profilaktik Kengaytirish" usuli. Bu usul tish qattiq to'qimasini kariesga moyil bo'lgan sohalarni "immun" zonalarigacha keng charxlab olib, qutisimon shakldagi kovakni shakllantirish – "ogohlantirish maqsadida kengaytirish" ni nazarda tutadi. Asosiy tamoyillari: emaldagi tayanchi bo'lmagan osilib turgan qirralarini, sinib ketish ehtimolidan kelib chiqqan holda olib tashlash; oldini olish maqsadida kengaytirish-retsdiv kariesning kelib chiqishining oldini olish maqsadida tishni immune zonalarigacha kengaytirish; chaynash vaqtida vujudga keladigan kuchga tish va plomba turg'unligini ta'minlash maqsadida bo'shliqqa qutisimon(to'rtburchak) shakl berish. I.G.LUKOMSKIYning <<Biologik mutanosiblik>> usuli. Bu usul tishni faqat kariesga uchragan to'qimasini olib, maksimal ravishda sog'lom to'qimani saqlashga qaratilgan. S.I.VAYS "Biologik mutanosiblik" usulining kamchiligini xisobga olib, karies kovagini sog'lom to'qima chegarasini 1mm gacha profilaktik kengaytirishni va qolgan soxalarni fluor saqlovchi vositalar bilan ishlov berishni taklif etgan.

Karies kovakni charxlash bosqichlari: 1. Karies Kovakni Ochish. Karies jarayoni dentinda emalga nisbatan tez kechganligi uchun, karies kovak ustida osilgan emal qavati bo'ladi va kovakni tubi kirish qismiga nisbatan ancha keng bo'ladi; karies kovagini ochishdan maqsad osilgan emal qirralarini olish va kovakni ko'rish, charxlash va plombalash uchun sharoit yaratishdan iborat; kovakni ochishda olmos qirrali sharsimon yoki fissur borlar bilan, turbinali dastak bilan olib boriladi. 2. Karies Kovakni Kengaytirish. Fissur va sharsimon borlar yordamida karies kovak devorlari kengaytiriladi, emal qirg'oqlari tekislanadi, o'tkir burchaklar charxlanib, yumshoq shaklga keltiriladi; kovak chegaralarini o'tkir emas, dumaloqlashgan holda shakllantirish lozim, o'tkir burchakda plomba qatlami ingichka bo'ladi, bu esa yoriqlarni paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. 3.



Nekroektomiya-yemirilgan,yumshagan dentinni olish. Karies kovakdan yemirilgan va yumshagan dentinni olishni ekskavator bilan boshlash lozim, chunki bu kam og'riqli muolaja,ehtiyotkorlik darajasi ko'proq va tish bo'shlig'ini ochib qo'yish xavfi kamroq bo'ladi. Ekskavatorni ham karies kovak hajmiga mos qilib tanlash lozim,ekskavator qoshiqchasining o'tkir qirrasi bilan kovak ichiga yengil burchak ostida yumshagan dentin ichiga kirgizilib,so'ng yumshagan to'qima qavatini osonlik bilan ko'chirib olinadi.Ekskavatoridan tashqari yumshagan dentinni qattiq qotishmali sharsimon bor va mikromatorli burchakli dastak bilan olinadi. Bajarilgan nekroektomiya sifatini tekshirish. Vizual ko'rikda,to'g'ri bajarilgan nekroektomiyadan so'ng, dentin sog'lom sarg'ish tusda bo'ladi. Zondlaganda,kovak devorlari va tubi silliq,dentinda zondni ushlanib qolishi kuzatilmaydi,aksincha,zond dentinda sirpanadi va o'ziga xos qirilgan ovoz chiqaradi. To'liq olinmagan dentinni aniqlash uchun yoki etritma ko'rinishidagi turli bo'yoqlardan ham foydalaniladi. 4. Kovakni Shakllantirish. Bu bosqichni maqsadi-doimiy plombani fiksasiyasi uchun optimal sharoit yaratilishi hisoblanadi.Kovakka shakl berishda tishning topografiyasi inobatga olinishi kerak. Yuza va o'rta kariesni shakllantirishda kovak devorlari tubiga nisbatan to'g'ri burchakli,tekis,tubi esa yassi va silliq bo'lishi lozim. Chuqur kariesda tish bo'shlig'ini topografiyasi muhim ahamiyat kasb etadi,chuki pulpa shoxlari yaqin joylashgani uchun uni bexosdan ochib qo'ymaslik maqsadida xavfsiz ishlamoq zarur. Karies kovaklarni shakllanishida sharsimon,teskari konussimon va g'ildiraksimon borlar ishlatiladi. 5. Kovak Kovak Qirralariga Ishlov Berish (finirlash). Karies kovak qirralariga ishlov berishda 45° burchak ostida egrilikni hosil qilish ham nazarda tutiladi. Emaldan mustahkamligi yuqori bo'lgan plomba ashyolari uchun kovak shakllantirganda (amalgama,kompozitlar) fals 45° burchak ostida: amalgama uchun-emalni butun qalinligi bo'ylab,kompozit uchun-emalni yarm qalinligida hosil qilinadi. Kovak chetlari-kirish teshigini o'rab turuvchi qirra. Kovak devorlari-tishni tashqi tomonlariga yo'nalgan yuzalar. Kovak tubi-tish



pulpasiga qaragan yuzi. Kovak burchaklari-devorlar orasida hosil bo'lgan brchaklar bo'lib,devor nomi bilan nomlanadi.

Xulosa

Karies kovaklarini charxlash stomatologik davolash jarayoning eng muhim bosqichlaridan biridir.Ushbu jarayonning to'g'ri ketma ket bajarilishi plombaning sifatli joylashishi,tishning funksional holatini tiklash va qayta karies rivojlanishining oldini olishda muhim ahamiyatga ega.Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki,kovakni charxlashda minimal invaziv yondashuv-ya'ni faqat zararlarga to'qmalarni olib tashlab,sog'lom qismini maksimal saqlab qolish-eng samarali usul hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Preklinik restavratsion stomatologiya (2022).
2. Karies kasalligi.Rizayev J.A. va Kubayev A.S. (2020).